

# МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QUVCHILARINING TIL KO'NIKMALARINI TURLI METODLAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH

*Aliyeva Sarvinoz Abbasjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti Amaliy ingliz tili kafedrasи o'qituvchisi  
[aliyevas.907@gmail.com](mailto:aliyevas.907@gmail.com)*

*Sodiqova Oyshabonu Bahodirjon qizi*

*Farg'ona davlat universiteti, Ingiliz tili va adabiyoti fakulteti  
21.88-gurux talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada chet tillarini o'rganish kundan kunga ommalashib, bunga ehtiyoj ham ortib borayotganligi va yosh o'rganuvchilar uchun chet tillari o'qitishning ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, ularning aqliy salohiyati qarab, ometodlaridan unumli foydalanish haqida o'rganib chiqilgan.

**Kalit so'zlar.** Metod, Montessori, Wardolf. tez aytish, maqollar, ko'rgazmali qurollar.

Bilamizki, hozirgi rivojlanib borayotgan davrda, ilm olish va undan foydalanib yangiliklar, qo'lyozma va adabiyotlar yaratish davr talabi hisoblanadi. Bu turdag'i kerakli qo'llanmalar esa asosan dunyoda ko'plab insonlar foydalanadigan tillarda yoziladi va o'qiladi. Mana shunday dunyo olimlar tomonidan yaratilgan ishonchli ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun esa albatta shu tilni o'zlashtirish lozim. Xalqaro xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan talab juda katta. Boshqa bir qarama-qarshi sohadagi inson ham biror bir yangi tilni o'qishga ishtiyoqi baland. Yurtimizda ham necha yillardan buyon shu haqida ta'kidlab kelmoqdalar. Belgilansinki, 2023-yil 1-yanvardan boshlab maktabgacha, umumiyl o'rta, o'rta maxsus va professional, shuningdek, maktabdan tashqari ta'lif tashkilotlari chet (ingliz, fransuz, nemis, ispan, italyan, arab, xitoy, yapon, koreys, turk, fors, pushtu, dari, urdu hind) tili fani o'qituvchilarining attestatsiyasi jarayonida o'quv fani bo'yicha malaka sinovlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lif sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan tinglab tushunish, o'qish, yozish hamda gapirish ko'nikmalarini baholashni nazarda tutuvchi kasbiy sinov shaklida o'tkaziladi.<sup>1</sup> Ko'rinish turibdiki nafaqat oliy ta'lif o'qituvchilarini balki, maktabgacha va boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarini ham xalqaro certifikatga ega bo'lishi shart va o'quvchilarga sifatli ta'lif berishi, darslarga zamonaviy usulda yondoshishi deb qo'yilgan. O'smir yoki undan kattaroq yoshdag'i shaxs til o'rganish

<sup>1</sup> (8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-soni qarori (<https://lex.uz/docs/-6247815?ONDATE=20.10.2022%2000#-6248851>) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)

jarayonida qiyinchiklarga, tushunmovchiliklarga uchrash yoki uchramasligi boshlang'ich bilimlarni qay darajada o'rgana olganligi, ta'lim beruvchisi qanday usullarda darsni olib borganligiga qisman bo'lsa ham bog'liq. Hattoki, ota-onalar ham farzandlariga chet tilini o'rgatishni iloji boricha erta boshlashga intilmoqdalar. Shu sababli har bir bog'chalarda ham alohida kurslar ajratilgan bo'lib, bolalar guruh bilan dastlabki bilimlarni qiziqarli yo'llar orqali zerikmasdan o'rgana olishadi. Xalqimizda bejizga "Yoshlikda berilgan bilim, toshga o'yilgan naqsh kabi" deyilmagan. Kichik yoshdagi o'quvchilarga birinchi bilimlarni puxta o'rganish juda muhim hisoblanadi. Avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o'qitishning maqsadlari haqida so'z yuritadigan bo'lsak:

- Chet tillarini o'rganish ularning kognitiv qobiliyatlarini oshiradi
- Boshqa mamlakatlarning madaniyati va turmush tarzi haqida tushunchaga ega bo'lish va qiziqishini uyg'otish
- Atrofdagilar bilan tez til topa olish
- Aqliy salohiyatini oshirish va atrof muhit bilan qiyinchiliksiz aloqaga kirishish; mana shular muhim omillar hisoblanadi.

Hozirgi davrda darslarni interfaol metodlar orqali dars olib borish zamonamiz talabiga aylangan. Bundan ma'lumki, mashg'ulotlar turli xil shaklda o'tilishi o'rganuvchilarning diqqatini oshirib, darsga qiziqishi yana ortishini va vaziyatga mantiqiy tomonlama yondashib o'rganishini ta'minlaydi. Shu o'rinda bir jahon standlariga mos hisoblangan metodlarga nazar tashlasak. Misol uchun:

1. Amalda ko'p foydalaniladigan metodlardan biri bu "**Montessori metodi**" hisoblanadi. Bu atamani fanga gollandiyalik o'qituvchi, shifokor Mariya Montessori olib kirgan. Ushbu ta'lim turida bola nima bilan band bo'lishni o'zi tanlaydi, tarbiyachi uning ishiga aralashmaydi faqat yo'nalish berib tushuntirib berishi tufali asosan maktabgacha va boshlang'ich ta'limdagilar uchun samaralidir. Chunki, Mariya eskirgan hozirda foya bermaydigan bolalarga foydadan ko'proq zarar beradigan, zo'ravonlikka yo'l qo'yadigan uslublarni qoralaydi. U har bir bolaning o'zining shaxsiy dunyosi harakteri borligini, o'qituvchilar esa har bir go'dak bilan alohida ishslashga undaydi.

- Oddiy bolalar bog'chasida bola tarbiyachi ko'rsatmasiga ko'ra harakatlanadi. Montessori metodida tarbiyachi bolani kuzatadi.

- Bog'chada tarbiyachilar yetakchi- bolaga ovqat berish, mashg'ulotlarda o'zi bajarib berish ko'p kuzatiladi

- Bog'chada bolani iloji boricha bitta joyda o'tirishga "rag'bat" kerak bo'lsa majburlashadi.

- Montessori bolani erkinligi va o'z o'zini boshqarishni qo'llab quvvatlaydi.

- Montessorida qilgan ishiga rag'batlantirmaydi. Bu keyinchalik bolani tashqi rag'bat uchun ishlayidgan odam qilib qo'ymaslikka yordam beradi.

2. **Waldorf usuli.** Waldorf uslubining diqqat markazlari qat'iy akademiklar emas.

Buning o'rniغا, u o'z hayotining mazmunini topa oladigan har tomonlama rivojlangan bolalarni rivojlantirishga intiladi. Ushbu intizom bolalarni mustaqil fikrlovchi bo'lishlarini istaydi. Shunday qilib, ushbu uslub o'zlarining o'quv dasturlariga san'at, musiqa, hissiy, jismoniy va akademik ta'lif kabi ko'plab fanlarni o'z ichiga oladi. O'qish keyinchalik kiritiladi va **Waldorf** maktablari bolalar 79 ta bo'lguncha kitoblardan foydalanmaydi va o'rta maktabgacha kompyuterlarni joriy qilmaydi.<sup>2</sup>

Qo'shimcha qiladigan bo'lsak, topishmoqlar, tez aytishlar( tongue twisters), harakatli o'yinlar va albatta mavzuga oid video lavlahardan foydalanish bolalarning nutqini ravon chiqishi uchun, eshitib tushunish qobiliyatini shakllanishi uchun xizmat qiladi. Ko'rgazmali qurollar esa rangli, e'tiborni jalb qiluvchi rasmlar bilan boyitilganligi maqsadga muvofiqdir. Barchamizga ma'lumki jimjimador narsalar yangilikka, intiluvchi bolalaning qiziqishini tortmasdan qolmaydi.

## XULOSA

Zero, chet tillari zamon talabi ekan har bir yosh avlod bunga jiddiy qarashi, bir necha tillarda erkin so'zlasha olishi lozim. Xorijiy yoshlari bilan muloqot jarayonida fikrini to'liq bayon qilishi uchun ham chet tillarini o'rganishi maqsadga muvofiqdir. Shu sababli bu jarayonni erta boshlash esa insonning kelajakda duch keladigan qiyinchiliklarini kamaytirishiga yordam beradi. Boshlang'ich ko'nikma reja, ma'lum bir usul orqali o'rganish qulaydir.

## Adabiyotlar:

1. (8-band O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-oktabrdagi 612-sonli qarori (<https://lex.uz/docs/-6247815?ONDATE=20.10.2022%2000#-6248851>) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 20.10.2022-y., 09/22/612/0949-son)
2. Turdiyeva, I. S. (2021). Maktabgacha yoshdag'i bolalarga Interfaol metodlarni qo'llash usullari. Oriental renaissance: Innovative, Educational, natural and social sciences. (Issue 6) 77-82
3. Toirova N. et al. LINGUOCULTURAL ANALYSIS OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN EASTERN CULTURE //FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI. – 2022. – T. 3. – №. 5. – C. 75-84.4. Sarvinoz A., Maftuna A. LINGUOCULTURAL PECULIARITIES OF THE UZBEK GEORTONYM NAVRUZ //IJODKOR O'QITUVCHI. – 2023. – T. 3. – №. 28. – C. 180-186.

<sup>2</sup> Turdiyeva, I. S. (2021). Maktabgacha yoshdag'i bolalarga Interfaol metodlarni qo'llash usullari. Oriental renaissance: Innovative, Educational, natural and social sciences. (Issue 6) 77-82

5. Alieva, S., & Rozikova, G. (2023). LINGUOCULTURAL AND SEMANTIC ANALYSIS OF THANKSGIVING DAY LEXEMES IN ENGLISH NATION. International Bulletin of Applied Science and Technology, 3(10), 227–232. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/2809>
5. Aliyeva S. A. Q. LINGUOCULTURAL PROPERTIES OF PHRASEOLOGICAL UNITS //CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES. – 2021. – Т. 2. – №. 11. – С. 135-140.
6. Zaylobidinovna R. G. et al. “AYOL” KONSEPTI BILAN BOG ‘LIQ INGLIZ XALQI GEORTONIMLARI //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2023. – Т. 3. – №. 3. – С. 518-523.
7. Юлдашева Д.М. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. [cyberleninka.ru](http://cyberleninka.ru)
8. ДМ Юлдашева, Д Асқарова, М Зохидова. Ўзбек болалар нутқига доир матнларда лакуна. Academic research in educational sciences 2
9. D Yuldasheva. Anthropotcentric approach to children's speech study. Конференции.
10. Ю.Д Махамадалиевна. Использование зоонимов в колыбельной песне-«алла», как аспект этнолингвистики. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук.
12. Eminchayev B.S. O'zbekistonda zamonaviy pedagogikaning hozirgi muammolari. Euroasian journal of technology and innovation.